

Katta o‘qituvchi
G‘.I. YARKULOV[1]
[1]Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Toshkent shahri, O‘zbekistan

https://doi.org/10.65149/fansport.2026.v9i5.a008

YOSH FUTBOLCHILARNING O‘YIN JARAYONIDAGI GURUHLI TAKTIK HARAKATLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Использование современных средств и методов в тренировочном процессе имеет важное значение для совершенствования и укрепления тактической подготовки юных футболистов. Расширение групповых тактических действий посредством новых упражнений и современных технологий способствует повышению уровня взаимодействия игроков на поле, быстроты принятия решений и общей тактической эффективности. Результаты исследования показывают, что современные подходы являются эффективным средством формирования тактических навыков у молодых футболистов.

***Ключевые слова**: юные футболисты, тактическая подготовка, инновационные методы, теоретические занятия, компьютерные программы, групповые тактические действия, правила игры.*

Abstract

Mashg‘ulot jarayonida zamonaviy vosita va usullardan foydalanish yosh futbolchilarning taktik tayyorgarligini takomillashtirish hamda mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Guruhli taktik harakatlarni innovatsion mashqlar va zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlantirish futbolchilarning maydondagi o‘zaro hamkorligi, tezkor qaror qabul qilishi va umumiy taktik samaradorligini oshirish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari zamonaviy yondashuvlar yosh futbolchilarning taktik ko‘nikmalarini shakllantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatadi.

***Kalit so‘zlar**: yosh futbolchilar, taktik tayyorgarlik, innovatsion metodlar, nazariy mashg‘ulotlar, kompyuter dasturlari, guruhli taktik harakatlar, o‘yin qoidalari.*

The use of modern tools and methods in the training process plays an important role in improving and strengthening the tactical preparation of young football players. Expanding group tactical actions through innovative exercises and modern technologies helps increase players‘ interaction on the field, decision-making speed, and overall tactical efficiency. The results of the study show that modern approaches are effective in developing tactical skills in young football players.

***Key words**: young football players, tactical preparation, innovative methods, theoretical training, computer programs, group tactical actions, rules of the game.*

Dolzarbligi. Bugungi kunda jahon futbolining rivojlanish sur’ati futbolchilarning taktik tayyorgarlik darajasi muntazam ravishda oshib borayotgani bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu maydondagi harakatlar ko‘lamining yanada jadallashuviga olib kelmoqda. Mazkur omil futbolchilarning taktik tayyorgarligiga yuqori talablar qo‘ymoqda. O‘yin shiddatining ortib borishi esa futbolchilarning taktik saviyasini oshirish, shuningdek, o‘quv-mashg‘ulot jarayonining sifat va samaradorligini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, futbolchilarning o‘yin epizodlarida vaziyatni to‘g‘ri baholashi, maqbul pozitsiyani tanlay olishi va tezkor qaror qabul qilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Turli yosh va malaka toifasidagi futbolchilarning taktik tayyorgarligini o‘rganish hamda tahlil qilish bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, ularda futbolchilarning taktik fikrlashi, o‘yin vaziyatlarini tezkor va aniq tahlil qilishi, shuningdek, qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirish masalalari murakkab va dolzarb ekanligi ta’kidlangan.

Jahon futbolida yosh futbolchilarni yuqori mahoratli sportchi sifatida tarbiyalashda ularning jismoniy, texnik va taktik tayyorgarligini takomillashtirish muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Jumladan, yosh futbolchilarning mashg‘ulot jarayonini innovatsion vosita va usullar asosida tashkil etish, musobaqaning so‘nggi daqiqalarigacha maxsus jismoniy tayyorgarlikni saqlab qolish, futbolchilarning universal harakatlanishini rivojlantirish, hujum va himoyada turli kombinatsiyalarni improvizatsion tarzda amalga oshirish, maydonda taktik fikrlash tezligi va aniqligini oshirish dolzarb vazifalardan biridir.

Bu borada Yevropa mamlakatlari olimlari va mutaxassislari — H.U. Shtunder, V.D. Volf, J.A. Wilson, J.P. Srouch hamda G.A. Lisenchuklarning ilmiy tadqiqotlarida taktik chizmalar va o‘yin epizodlarini zamonaviy innovatsion texnologiyalar yordamida tushuntirish yosh futbolchilarning taktik tafakkurini tezroq shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qilishi qayd etilgan.

Tadqiqotning maqsadi yosh futbolchilarning mashg‘ulot va musobaqa faoliyatida guruhli taktik tayyorgarligini nazorat qilish hamda uning samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi mashg‘ulot usullarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi. So‘nggi yillarda futbol bo‘yicha o‘tkazilayotgan jahon va Osiyo chempionatlarida O‘zbekiston o‘smirlar va yoshlar terma jamoalari muntazam ravishda ishtirok etib kelmoqda. Jumladan, 2023-yilda o‘tkazilgan o‘smirlar o‘rtasidagi jahon chempionatida O‘zbekiston terma jamoasi munosib ishtirok etdi. Jamoa guruh bosqichi hamda nimchorak final uchrashuvlarida Angliya va Fransiya kabi kuchli raqiblarga qarshi tengma-teng o‘yin namoyish etdi.

Mazkur chempionat o‘yinlarini tahlil qilish jarayonida yetakchi terma jamoalarning guruhli taktik harakatlari yuqori samaradorlik bilan amalga oshirilganligi aniqlandi. Jumladan, Yaponiya terma jamoasi guruh bosqichidagi barcha o‘yinlarda hujumkor taktikani qo‘llagan. Jamoa futbolchilari guruhli taktik bog‘lamlarni asosan maydonning 2-zonasida — 44,5 %, 3-zonasida esa 25 % holatda amalga oshirgan. Ushbu natijalar yaponiyalik yosh futbolchilarning gu-

ruhli taktik harakatlarni nafaqat birinchi zonada, balki ikkinchi va uchinchi zonalarda ham ishonchli tarzda bajarganliklarini ko‘rsatadi.

Bizning tadqiqot natijalarimizga mos ravishda, beIN SPORT Asia tahlillarida ham Yaponiya terma jamoasining maydonning barcha zonalarida samarali guruhli taktik harakatlarni amalga oshirgani alohida ta’kidlangan.

2023-yilgi o‘smirlar o‘rtasidagi jahon chempionatida Germaniya terma jamoasining hujum va himoyadagi ishonchli guruhli taktik harakatlari ularning chempion bo‘lishida muhim omil bo‘ldi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, Germaniya terma jamoasi futbolchilari maydonning 1-zonasida 29,7 %, 2-zonasida 46,1 % va 3-zonasida 24,2 % guruhli taktik harakatlarni amalga oshirgan.

Chempionat o‘yinlari tahlili shuni ko‘rsatdiki, ko‘plab yetakchi terma jamoalar guruhli taktik harakatlarni asosan maydonning 2 va 3-zonalarida samarali tashkil etish orqali jamoa oldiga qo‘yilgan vazifalarni tezkor hal etishga erishgan. Futbol mutaxassislari zamonaviy futbol rivojlanish tendensiyalarida maydonning barcha hududlarida taktik bog‘lamlarni ishonchli amalga oshirish muhim omillardan biri ekanligini qayd etishmoqda.

Tadqiqot davomida O‘zbekiston U-15 terma jamoasi, “Paxtakor”, “Bunyodkor” hamda Toshkent futbol akademiyasi o‘smir futbolchilarining maydondagi guruhli taktik harakatlari o‘rganildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston va “Bunyodkor” jamoalari futbolchilari birinchi zonada o‘rtacha 80–93,1 ta (44–46 %) guruhli taktik uzatmalarni amalga oshirgan. Uchinchi zonada esa “Bunyodkor” futbolchilari o‘rtacha 34,2 ta, O‘zbekiston terma jamoasi futbolchilari esa 33,1 ta guruhli uzatmalarni bajarganligi aniqlandi (1-jadval).

1-jadval

O‘zbekiston terma jamoasi(U-15) va Futbol akademiya jamoalarining maydon zonalari bo‘yicha guruhli to‘p uzatishlarni bajarilish ko‘rsatkichlari

	Jamoalar	Maydon zonalari			Jami
		1-zona	2-zona	3-zona	
1	**O‘zbekiston terma jamoasi (U-15)**	80,2±16,8	74,1±33,9	33,1±4,5	187,4±54,2
		44%	**40%**	**16%**	**100%**
2	**Bunyodkor (U-16)**	93,1±16,9	73,1±27	34,2±4,7	200,4±40,1
		46%	**36%**	**17%**	**100%**
3	**Paxtakor (U-16)**	84,2±13,1	79,8±24,3	32,7±4,2	195,8±49,3
		43%	**40%**	**17%**	**100%**
4	**TFA (U-16**	85,3±14,3	3,1±22,4	29,8±3,2	190,7±46,1
		44%	**38%**	**15%**	**100%**

2-zonada guruhli taktik harakatlarni amalga oshirish bo‘yicha “Bunyodkor” futbolchilari o‘rtacha 96,1 marta (42 %) natija qayd etgan bo‘lsa, O‘zbekiston terma jamoasi futbolchilari 93,1 marta (38 %) ko‘rsatkichga erishgan. 1-jadval natijalari futbol akademiyasi tarbiyalanuvchilarining guruhli to‘p uzatish harakatlari asosan maydonning 1 va 2-zonalarida ko‘p marotaba bajarilganligini ko‘rsatdi. Umuman olganda, yosh futbolchilarning guruhli taktik harakatlari ko‘proq maydonning birinchi va ikkinchi zonalarida amalga oshirilgan bo‘lib, uchinchi zonadagi guruhli to‘p uzatmalar ulushi atigi 17 % ni tashkil etgan.

Futbol maktablarida shug‘ullanayotgan 14 yoshli futbolchilarning guruhli taktik harakatlarini rivojlantirish maqsadida respublika miqyosida o‘tkazilayotgan Sport maktablari futbol ligasi musobaqalarida viloyat futbol maktablari tarbiyalanuvchilarining maydondagi guruhli taktik harakatlari o‘rganildi. 2024-yilgi Futbol maktablari ligasi musobaqalarida qatnashgan 14 yoshli futbolchilarning guruhli taktik harakatlari ko‘rsatkichlari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Respublika miqqyosidagi “Sport maktablari futbol ligasi” musobaqalarida jamoalarning guruhli to‘p uzatishlarning ko‘rsatkichlari (2024)

№	Jamoalar	Maydon zonalari			Jami
		1-zona	**2-zona**	**3-zona**	
1	**Toshkent viloyati**	75,3±17,7	63,4±13,9	15,9±5,3	154,6±20,2
		49%	**41,50%**	**9,50%**	**100%**
2	**Samarqand viloyati**	80,1±14,3	53,1±12,2	10,2±3,7	143,4±20,3
		54%	**38%**	**8,00%**	**100%**
3	**Qashqadaryo viloyati**	76,2±13,1	59,8±14,3	9,7±3,1	145,7±19,8
		53%	**40%**	**7,00%**	**100%**
4	**Toshkent shahar**	73,3±14,8	65,1±12,4	13,8±3,2	152,2±22,4
		48%	**42%**	**10%**	**100%**

Jadval natijalaridan ko‘rinib turibdiki, deyarli barcha viloyat jamoalari o‘smir futbolchilari guruhli taktik harakatlarni asosan maydonning 1-zonasida amalga oshirganlar. Birinchi zonadagi guruhli taktik harakatlar ulushi 50–55 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2-zonadagi taktik harakatlar 40–42 % ni, 3-zonadagi harakatlar esa atigi 7–10 % ni tashkil etgan. Ushbu natijalar o‘smir futbolchilarning raqib maydonida guruhli to‘p uzatmalarini kam amalga oshirayotgani hamda hujumni samarali yakunlashda, ayniqsa, ikkinchi va uchinchi zonalardagi taktik bog‘lanishlarda kamchiliklar mavjudligini ko‘rsatdi.

Yosh futbolchilarning guruhli taktik tayyorgarligini baholash maqsadida “Futbolchilarning taktik fikrlash qobiliyatini aniqlash” dasturi asosida nazorat testlari o‘tkazildi. Dastlabki test mavsum boshida, ikkinchi nazorat testi esa mavsum yakunida tashkil etildi. Tadqiqotda nazorat guruhida 15 nafar, tajriba guruhida esa 15 nafar tarbiyalanuvchi ishtirok etdi. Yosh futbolchilarning taktik fikrlash darajasi maxsus kompyuter dasturi yordamida baholandi. Mazkur dasturda futbol o‘yiniga oid turli epizodlar monitor ekranida namoyish etilib, futbolchilar ushbu vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishlari talab etildi. Jumladan, to‘pni uzatish, darvozaga zarba berish, maqbul pozitsiyani egallash hamda standart vaziyatlarda samarali harakat qilish kabi topshiriqlar bajarildi.

Dastlabki test natijalariga ko‘ra, taktik vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘rsatkichi tajriba guruhida 11,8±0,5 ballni, nazorat guruhida esa 11,3±0,5 ballni tashkil etdi. Taktik vaziyatlarga tezkor javob qaytarish natijalari esa tajriba guruhida 5,4±0,6 soniya, nazorat guruhida 5,3±0,6 soniyani tashkil qilgan. Ushbu ko‘rsatkichlar bo‘yicha guruhlar o‘rtasida statistik jihatdan ishonchli farq kuzatilmadi ($P>0,05$).

Mavsum yakunida o‘tkazilgan qayta nazorat testlarida esa tajriba va nazorat guruhlari natijalari o‘rtasida sezilarli farq kuzatildi. Xususan, tajriba guruhi futbolchilari taktik vaziyatlarni yechishda to‘g‘ri qaror qabul qilish va tezkor fikrlash bo‘yicha yuqori natijalarni qayd etdilar. Tajriba guruhida taktik epizodlarga aniq qaror qabul qilish ko‘rsatkichi 14,5±0,6 ballni, tezkor qaror qabul qilish esa 4,8±0,6 soniyani tashkil etdi. Nazorat guruhida esa ushbu ko‘rsatkichlar mos ravishda 11,9±0,5 ball va 5,2±0,5 soniyani tashkil qilgan. Nazorat guruhi natijalarida mavsum boshiga nisbatan deyarli sezilarli o‘zgarish kuzatilmadi.

Xulosalar. Sport zaxiralarini tayyorlash nazariyasi va amaliyotini har tomonlama tahlil qilish asosida o‘yin orqali o‘qitish konsepsiyasi jahon futbolining zamonaviy rivojlanish tendensiyalariga mos kelishi aniqlandi. Futbolchilarning tez o‘zgaruvchan o‘yin vaziyatlarini tez va aniq baholashi, maqbul qarorlar qabul qilishi hamda o‘yin rivojlanishini oldindan ko‘ra bilishi ularning taktik tafakkuri rivojlanganligi bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu bilan birga, musobaqa faoliyatini modellashtiruvchi o‘yin mashqlarini tanlash va ularni mashg‘ulot jarayoniga samarali tatbiq etish bo‘yicha tashkiliy-metodik yondashuvlarning yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi yosh futbolchilarning taktik tayyorgarligini rivojlantirish muammosini yanada dolzarb qilib qo‘ymoqda.

Xorijning yetakchi 15–16 yoshli terma jamoalari faoliyatini o‘rganish natijasida Yevropa futbol akademiyalarida shug‘ullanuvchi yosh futbolchilar maydonning 2 va 3-zonalarida ko‘proq guruhli uzatmalarni amalga oshirishi aniqlandi. Hujumlarni bosqichma-bosqich tashkil etish, qisqa va o‘rta masofali paslardan foydalanish, devor usulidagi uzatmalar, dribling va yakuniy zarbalar orqali hujumni rivojlantirish zamonaviy futbolning asosiy xususiyatlaridan biri ekanligi kuzatildi.

So‘nggi ilmiy tadqiqotlar va soha mutaxassislarining ilmiy-uslubiy ishlari tahlili yosh futbolchilarning taktik tayyorgarligini rivojlantirishga oid ilmiy asoslangan usullar va tavsiyalar yetarli emasligini ko‘rsatdi. Ko‘plab tadqiqotchilar nazariy mashg‘ulotlarning taktik tayyorgarlikdagi ahamiyatini alohida ta’kidlaydilar. Xususan, o‘yin taktikasi chizmalari va o‘yin epizodlarini zamonaviy texnologiyalar yordamida tushuntirish yosh futbolchilarning taktik fikrlashini tezroq shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qilishi qayd etilgan.

Yosh futbolchilarning taktik ko‘nikmalarini takomillashtirish maqsadida ularning maydondagi pozitsiyalarini o‘zgartirish, oldindan o‘zlashtirilgan mashqlarni murakkab va noqulay vaziyatlarda qo‘llashga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar tashkil etildi. Bunday yondashuv futbolchilarning maydondagi fikrlash qobiliyatini kengaytirishga hamda tezkor qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qildi. Tadqiqot yakunida tajriba guruhi futbolchilari nazorat guruhiga nisbatan taktik vaziyatlarni tezkor va to‘g‘ri hal etish ko‘rsatkichlari bo‘yicha statistik jihatdan ishonchli ustunlikka ega ekanligi aniqlandi ($p<0,01$).

Adabiyotlar:

1. Artikov, A. A. (2018). Malakali futbolchilarning musobaqa sharoitidagi texnik usullarining maqsadli aniqligini tahlil qilish. Sportga ilm-fan: ilmiy nazariya jurnali, (3), 23–27-betlar.

2. Bektorov, O. Yo. (2020). Yosh futbolchilarning taktik tayyorgarligi. Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya: nazariy va amaliy tadqiqotlar nomli XXXII xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami, 2-son, 117–120-betlar. Moskva: “Internauka” nashriyoti.

3. Shermuxamedov, A. T. (2019). “Paxtakor” futbol akademiyasi (U-16) musobaqa faoliyatining tahlili. OTMda sifat menejmenti tizimi: sog‘liqni saqlash, ta’lim, raqobat mavzusidagi III xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, 272–274-betlar. Chelyabinsk.

4. Golomazov, S. V., & Said, O. A. (2004). Futbol. Yosh sportchilarda aniqlikni rivojlantirish mashg‘ulotlari. Moskva: RGAFK.